

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

«Pedagogika» kafedrası

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

Sanaqulova Mehrinisoning
«Pedagogik konfliktologiya» fanidan

KURS ISHI

MAVZU: Oilaviy konfliktlar va er-xotin munosabatlari tizimi

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Samarqand - 2014

REJA

KIRISH

ASOSIY QISM

1. Oilaviy konfliktlar va ularning mohiyati

2. Ayol va erkaklarning tafakkur tarzidagi farqlar

3. Oilaviy hayotni to'g'ri tashkil qilish, uni ziddiyatlardan asrash bo'yicha qizlarga maslahatlar

4. Oilaviy hayotni to'g'ri tashkil qilish, uni ziddiyatlardan asrash bo'yicha yigitlarga maslahatlar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqil davlatimizning asosiy xujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Asosiy Qonun), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, "Oila kodeksi"da oilani mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari aks yettirilgan.

O'zbekiston hukumati va yurtboshimiz I.A. Karimovning istiqlol yillarida oila muammolariga hamda yosh avlodni ma'nan yetuk va jismoniy barkamol etib tarbiyalashga dahldor Farmon va Qarorlar qabul qildilar. Ular jumlasiga "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Obod mahalla yili", "Mehr-muruvvat yili", "Sihat-salomatlik yili" va boshqalarni kiritish mumkin. 2012 yilni O'zbekiston Respublikasida "Mustahkam oila yili", deb e'lon qilinishi munosabati bilan Prezident I.A. Karimovning "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida "Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish ..." ga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Prezident Islom Karimov tomonidan mustaqil respublikamiz qomusini (Asosiy Qonun)ni qabul qilingan kunning 5 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda 1998 – yilning "Oila yili", deb e'lon etilganiga ham 14 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga e'tibor kuchayganligini, uning ta'lim hamda tarbiya masalalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligi, hamkorligi mustahkamlanganligini yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish yaxshilanganligini ta'kidlash joizdir.

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy birligi, uning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga oila yuksak darajadagi insoniy qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi institut va ma'naviy

ahloqiy tarbiya o'chog'i hamdir. Aynan oilada ko'pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o'stiriladi va targ'ib qilinadi.

Har bir halq va milliy an'analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo zamonaviy jamiyatlardagi keskin o'sish sur'atlari hamda insonning juda katta ijtimoiy faoliyatining uning oilasi va oila a'zolari munosabatlariga bo'lgan kuchli ta'siri asosida milliy an'analar hamda dolzarb va yangitdan vujudga kelayotgan savollarga to'liq javob bera olmaydi. Shu bois, milliy an'analarni oilaviy turmush borasidagi umumbashariy nazariy bilimlar bilan qo'shib olib borish talab etiladi.

Totalitar tuzum davrida oila yopiq va rasmiy ijtimoiy institut darajasiga olib chiqilgan. Oilaviy turmushning ichki qonuniyatlari va ayol hamda erkak munosabatlari yoritilmagan va o'rganilmagan. O'quvchi yoshlarni, shuningdek insonni oilaviy turmushga tayyorlash, xususan oilaviy turmushning o'ziga xos tomonlarini bildirish "uyatli" va "ayb" sanalib, mazkur yo'nalishlar taqiqlangan mavzular sirasiga kirgan. Maktab va oliy o'quv yurtlari ta'lim mazmunida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, kelajakda ota-ona sifatida farzand tarbiyasi uchun mas'ul bo'lish, oiladagi jinsiy va psixologik munosabatlar, oila iqtisodi, oilada sog'lom turmush tarzini barpo etish kabi masalalarga o'rin ajratilmagan. Yoshlarga na maktabda, na oliy o'quv yurtlarida oilaviy hayotga tayyorlash, ayniqsa jinsiy tarbiya borasida, oilaviy hayotning o'ziga xos iqtisodiy, ma'naviy, sog'lom turmush tarzi asosidagi ziddiyatli o'rinlari va jinslar munosabatlarining murakkabliklari haqida ma'lumotlar olish uchun imkoniyatlar yaratilmagan. Shu bois, yoshlar bu munosabatlarning tub mohiyatini anglab yetmasdan oila qurishga kirishganlar.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'proq qismini yoshlar tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini jadallashtirishni talab etdi.

Insonlarning o'zaro munosabatlarida keskinliklarning o'sib borayotganligi, zamonaviy ziddiyatlarning inson tafakkuri va ongiga ta'sir etishi orqali uning

psixologik holatida salbiy va asabiy oqibatlarining vujudga kelishi, yosh oilalardagi ajrim holatlarning muntazam o'sib borayotganligi, bolalar va o'smirlardagi agressiya holatlarining vujudga kelayotganligi kabi muammolar talaba-yoshlarni oilaga tayyorlash vazifasini to'laqonli olib borish talabini kun tartibiga qo'yadi.

Ushbu dolzarb vazifalar kurs ishi uchun «Oilaviy konfliktlar va ularning oldini olish» mavzusini tanlash ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Tadqiqot maqsadi: Oilaviy konfliktlar va ularning oldini olishning pedagogik-psixologik jihatlarini mavjud adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari asosida tahlil qilish

Tadqiqot obyekti: Oilada shaxslararo munosabatlar mazmuni

Tadqiqot predmeti: Oilada shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan konfliktlar va ularni bartaraf etish xususiyatlari

Tadqiqot vazifalari:

1) Oilaviy munosabatlar va konfliktlarning tabiati, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari yuzasidan mavjud adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

2) Oilaviy konfliktlar va ularning mohiyatini pedagogik-psixologik jihatdan yoritish;

3) Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomondan to'liq tayyorlash masalalari yo'nalishlarini o'rganish;

4) Ayol va erkaklarning tafakkur tarzidagi farqlar tadqiq qilish;

5) Oiladagi konfliktlar va ularni bartaraf etish bo'yicha xulosalar shakllantirish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Mustahkam oila yili» davlat dasturi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Prezident I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasi bo'yicha g'oyalari, ma'ruzalari, Sharq mutafakkirlarining oilada munosabatlar odobi bo'yicha qarashlari, shuningdek pedagog-psixolog olimlarning oila madaniyati va muloqoti muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari tadqiqotimiz uchun asos qilib olindi.

ASOSIY QISM:

1.Oilaviy konfliktlar va ularning mohiyati

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy birligi, uning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga oila yuksak darajadagi insoniy qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi institut va ma'naviy ahloqiy tarbiya o'chog'i hamdir. Aynan oilada ko'pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o'stiriladi va targ'ib qilinadi.

Har bir halq va milliy an'analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo zamonaviy jamiyatlardagi keskin o'sish sur'atlari hamda insonning juda katta ijtimoiy faoliyatining uning oilasi va oila a'zolari munosabatlariga bo'lgan kuchli ta'siri asosida milliy an'analar hamda dolzarb va yangitdan vujudga kelayotgan savollarga to'liq javob bera olmaydi. Shu bois, milliy an'analarni oilaviy turmush borasidagi umumbashariy nazariy bilimlar bilan qo'shib olib borish talab etiladi.

Oila, o'z ijtimoiy mazmuniga qarab, uch tarkibiy qism birligidan tashkil topadi. Ular: oila asosi sifatida nikoh, nikohning natijasi sifatida er va xotin munosabatlari, hamda er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida farzandlardan tashkil topadi. Er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, yangi avlodning tug'ilishi oilaga muayyan yaxlitlik, muayyan ijtimoiy guruh, jamoa tusini beradi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tizimini vujudga keltiradi. Binobarin, "er-xotin" oilaning dastlabki komponenti (qismi) bo'lib, undan "ona-bola", "ota-bola" va "ota-ona" munosabatlari kelib chiqadi.

Oila milliy qadriyatlar maskani hisoblanadi. Yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni har bir millatning madaniy va ma'naviy-ruhiy qadriyatlaridan hisoblanib, xususan talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma'naviy takomilining eng ulug' va oliy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Oilaviy madaniyat, oilaviy hayotga ongli kirib borish, oilaviy vazifalarni bajarishga tayyorlik, hayotda oila o'rnini yuksak qadrlash, oilaga mas'uliyat bilan qarash, xalq ma'naviy merosidagi oila qadriyatlarini o'z zamoni talablari bilan

uyg'unlashtirib rivojlantirish har vaqt inson hayotiy mezonlari va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida tan olingan.

Oilaga nisbatan insoniyat tarixida asrlar davomida shakllanib, e'zozlangan ma'naviy ehtiyojlar tizimi, oilani shaxs ma'naviyatini asrab avaylaydigan, uning barkamolligi mezonlaridan biri deb tan oladigan qonun-qoidalar majmui sifatida anglash, oilani butun jamiyat va millat taqdiri va taraqqiyotiga bevosita oidligini chuqur idrok etish - shaxsning ma'naviy yetukligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblangan. Chunki, oilani muqaddas deb bilmagan inson – ma'naviy qashshoq insondir. Oilani muqaddas deb anglash har bir jamiyat a'zosining o'z vijdoni, o'z oilasi va farzandlari oldidagi burchidir.

Oila muqaddasligini ta'minlash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida oila asoslarini mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik vazifalardan hisoblanadi. "Biz o'z ma'naviy hayotimiz va kelajagimizni qurayotganda beqiyos milliy qadriyat bo'lmish oilani asosiy tayanch deb bilamiz. Chunki o'zligimizga qaytish, milliy urf-odatlarimizni e'zozlash, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik, odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar oila muhitida shakllanadi"¹.

Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomondan to'liq tayyorlash masalalari kuyidagi yo'nalishlardagi ma'lum bilim va ko'nikmalarni talab etadi:

oila salomatligi: oila a'zolari salomatligi bo'yicha birlamchi bilimlarga ega bo'lish, salomatlikni saqlash omillarini bilish, salomatlikni saqlash va umrni uzaytirish usullarini va milliy qadriyatlarni oila hayotiga singdira bilish, milliy tabobatdan xabardor bo'lish, reproduktiv salomatlik mezonlariga amal qilish, to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga rioya qilish, salomatlikni saqlash – fuqarolik burchi ekanligini anglash, qariyalar salomatligiga e'tiborli bo'lish, go'dak va emizikli bolalar salomatligi, bolalarni yuqumli kasalliklardan asray olish, yod tanqisligi va temir moddasi yetishmovchiligi oldini ola bilish, oilada tibbiy bilimlarga hurmat va e'tiborning shakllantirilishi, farzandlarni zamonaviy tibbiy

¹ Каримов И.А. Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. –Т.: Ўзбекистон, 1999, 7-том, -Б.252-253

tahdidlardan asrash, ularga tibbiy tahdidlar bo'yicha zarur bilimlarni berib borish, bolani ona suti bilan boqish mazmunini anglash, hayotga fiziologik-gigiyenik jihatdan tayyor bo'lish, tibbiyot maskanlariga murojaat qilishni bilish, zararli odatlar mohiyatini to'g'ri baholash, oilaning ijtimoiy ahvolini yaxshi va ravon saqlash, uni yaxshilash omillarini o'rganish.

oiladagi jinslararo va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar: jinsiy tarbiya asoslari, jinslar psixologiyasi va salomatligi bo'yicha bilimlarni egallash, nikohni ulug'lash, nikohdagi xalollik va sadoqat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni an'anaga aylantirish, ona salomatligiga muqaddas munosabat, jinsiy kasalliklar bo'yicha bilimlarni eallash, farzand tug'ilishi va uning salomatligi, o'zini va oila a'zolarini zararli ko'nikmalardan asrash, ma'naviy barkamollik, sog'lom turmush tarzi asosidagi axloq normalari, inson psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish; psixologik turlarni ajrata bilish, psixologik ta'sir o'tkazish omillarini egallash, psixologik taz'yiqdan o'zini himoya qila olish, oila psixologiyasi va oiladagi munosabatlar psixologiyasini bilish, ota-ona va bolalar o'rtasidagi psixologik vaziyatlar, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar va ular yechimini o'rganish, psixologik muvozanat sirlarini egallash.

oilalik etikasi va estetikasi: oilada o'zaro munosabatlar va muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, tibbiy va ma'naviy sog'lomlik, jismoniy va ruhiy barkamollik, yetakchilik va tadbirkorlik, o'zaro muhabbat, adolat, insonparvarlik, insoniylik, to'g'rilik, kamtarlik, samimiylik, ota-onaga hurmat, mehr-muruvvat, sahovat, bag'rikenglik, sadoqat, vafodorlik, gunoh ishlardan qochish, sabr-toqat, o'z va'dasi ustidan chiqish, ilmi bo'lish, ayollarni qadrlash, iffat, rostgo'ylik, pokizalik, halollik, himmat va bardoshlilik, xushxulqlilik, shukr, hayo, tejamkorlik, halimlik, viqor, rahm-shavqat, onalik mehri. ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik va vafodorlik, mehr va muruvvatga asoslangan oilaviy muloqot madaniyati, jamoat ishlari va oila taraqqiyotida tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, ma'naviy-mafkuraviy sog'lomlik, inson erkini hurmatlash, har bir insonning takrorlanmasligini tan olish va e'zozlash.

oila a'zolari o'rtasida oilaviy majburiyatlar taqsimoti va tomonlar huquqlari:

oila va oilaviy majburiyatlar, ayol va erkak majburiyatlariga doir zamonaviy stereotiplar, zamonaviy oila va oila a'zolari majburiyatlari, oilada kim pul topishi kerakligi, oila mablug'larini qanday taqismlash zarur, oila va ovqatlanish talablari, oila a'zolarining huquq va majburiyatlarini to'g'ri anglash, er va xotin huquqlari kafolatlarini bilish, oila huquqi bo'yicha qonunchilik tizimi bergan imtiyozlardan to'g'ri foydalana olish, din, oila va inson huquqlari masalasi, turmush qurayotgan yoshlarning oilalari o'zaro muvofiq bo'lishiga erishish, oila qurishda tomonlar erkinligi huquqini to'g'ri anglash, ayolning mehnat, dam olish, onalik va bolalik muhofazasi, erkak va ayol mehnat muhofazasi, ayolning xomiladorlik bo'yicha muhofazasi, oila qurish tartibi, shuningdek ajrim huquqi, ajrim holatidagi tomonlar huquqlari bo'yicha qonun xujjatlarini bilish va amalda qo'llay olish, oilada gender tenglik, jinslar o'rtasidagi farqlarni anglash, gender ta'limotdan bilimlarga ega bo'lish, gender tushunchasining mohiyatini anglash, gender tarbiya masalalarini bilish, gender muhofaza qonunlarini tatbiq eta bilish.

oilaviy inqirozlar va ularning oldini ola bilish, oilaviy konfliktlar yechimiga tayyorlik: oila va konfliktlar, konfliktlar inson hayotining tabiiy xususiyati ekanligi, konflikt oilaviy va ijtimoiy hodisa sifatida, konfliktga nisbatan yoshlarda to'g'ri munosabatni shakllantirish, oilaviy inqirozlar va ularga to'g'ri munosabat, oilaviy inqirozlarning oldini olish choralari, konfliktning yaratuvchanlik va buzg'unchilik xususiyati, oilaviy konfliktlardan chiqib ketish, ularni yengish usullari, konfliktlarni boshqarish, g'azab va jahlni yengish usullarini bilish, shaxs va oila, oilaning har bir a'zosiga hurmat va e'tibor me'yorlari, shaxs erkinligi, egoizm, egoizmdan qutulish omillari, oilada o'zini ustun qo'yish, oilada uning a'zolari munosabatlaridagi uyg'unlik, shaxs va jamoa munosabatlari, shaxs va oila manfaatlari birligi, oila manfaatlarining ustunligi, shaxsning muloqot madaniyati va ichki dunyosi yetukligi omillari, ota-ona va farzand majburiyatlari va huquqlari.

oiladagi sog'lom muhit va oilaviy muloqot: oila va oila osoyishtaligi, oiladagi sog'lom muhitni muhofaza qilishda barcha tomonlarning mas'ul ekanligi, shaxsiy huquqlarni oila huquqi bilan mutanosib olib bora olish tartiblari, oila a'zolari

o'rtasidagi muloqot, oila boshlig'i va uning mavqeyi, oila boshlig'i kim bo'lishi lozimligi, oila boshlig'i borasidagi stereotiplar, erning o'z xotiniga bo'lgan munosabati tamoyillari, ayolning o'z eriga to'g'ri munosabati tamoyillari, erning kamchiliklari, xotinning kamchiliklari, o'z kamchiliklaridan qutilish tartiblari, oila va jamiyat munosabatlari, jamiyatda oila mavqeyini saqlash, jamiyat a'zolari bilan bo'ladigan muloqotlarni to'g'ri olib borish, qarindosh urug'lar o'rtasidagi mehr-muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishga harakat qilish, oilada muloqot madaniyati, oila ma'rifati, bilim va kitobga muhabbat, oilada shaxs erkinligi, oilada ota-ona va farzand munosabatlaridagi samimiylilik va bir-birini to'ldirish, oilada ota-ona va farzandga muhabbat qirralari va muammolari, mehmon kutish va mehmonga borish odobi, suhbatlashish odobi, farzandlarni jamoada yashashga va jamoada yashash qonun-qoidalariga o'rgatish, oilaviy hayotga estetik munosabatda bo'lishga tayyorlash, oila iqtisodiyoti asoslarini tashkil qila bilish, iqtisodiyotni to'g'ri yuritishga o'rgatish, oilani ijtimoiy muhofaza qilish choralari ko'ra bilish, oiladagi sog'lom psixologik va tibbiy muhitning shakllanishida oila a'zolari majburiyatlari va huquqlarini mutanosib belgilash va tashkil qilishga o'rganish.

oila an'analari: oila an'alarining kelib chiqish sirlari, oila an'alariga hurmat, oila an'alarini yaratish va ularni ta'minlash, oilaviy an'analarni avlodlarga o'tkazish, oila an'alarida shaxs barkamolligi o'rni, oila an'alarida sog'lom turmush tarzi, sport, jismoniy tarbiya va jinsiy halollik masalalari, oilada bayramlarni nishonlash tartibi, oilaviy an'analarni saqlashga farzandlarni o'rgatish, oila va sayohat, oila va o'z o'lkasi tarixi, geografiyasi, milliy urf-odatlarini o'rganish, oila va horijiy ellarga sayohat, oila ananalaridan farzand tarbiyasida unumli foydalanish.

Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Shu bois, J.Santayana "Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir", deydi. Oila – ma'naviyat o'chog'i. Aynan oilada insonning ma'naviy qadriyatlari

shakllantiriladi². Insonning har tomonlama unib-o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Biroq, aynan oila tarkibida, insonlarning juda yaqin aloqalari va ma'lum munosabatlarga kirishishi natijasida turli inqirozlar, ziddiyatlar, nizolar kelib chiqadi.

O'zbek oilasining tarixiy rivojlangan o'z milliy an'analari mavjud. Ular oiladagi tomonlar majburiyatlari, mas'uliyati va huquqlarini belgilab beradi. Ham ayol kishi uchun, ham erkak kishi uchun ma'lum talablar qo'yiladi. Ayol kishi ko'proq uyda, bolalar tarbiyasi va uy yumushlari bilan shug'ullanishi lozimligi, erkak kishining esa – oila a'zolarining moddiy ta'minotini amalga oshirishi lozimligi aytiladi. O'zbek oilasi o'z rivoji bosqichlarida islom dini qadriyatlarini ham o'ziga singdira olgan.

Shu bilan birga oila instituti har vaqt o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy talablariga hamoxang tarzda o'sish va takomil jarayonida bo'ladi. Agar avvallari oila instituti o'zining kichik bir dunyosi ichida tashqi ta'sirlardan bir qadar erkin yashagan bo'lsa, hozirda har bir oila va uning a'zolariga globalizasiya sharoitida juda katta axborot oqimlari o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu nuqtai nazaridan, oila a'zolarining an'anaviy fe'l va atvorlarida o'ziga xos o'zgarishlar ham yuz beradi. Ana shunday oila a'zolariga, xususan erkaklar va ayollarga bo'lgan tashqi ta'sirlar natijasida odamlarning o'zini namoyon etishidagi ba'zi o'zgarishlar so'nggi yillarda o'zini yorqin ko'rsatmoqda:

- Jamiyatda odamlarning kiyinishida katta o'zgarishlar yuz berdi. Odamlarning kiyinishida ularning ijtimoiy tengsizligi o'zini namoyon etmoqda. Jamiyat bir necha guruhlarga bo'linib bormoqda. Bir tomondan, islom talablari asosida kiyingan odamlar kirib kelgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, G'arb madaniyati

² Иномова М.О. Оилада болаларнинг маънавий-ахлокий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999; Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий гурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000; Мусурмонова О., Баубекова З. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятларини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993; Сафаров О., Махмудова М. Оила маънавияти. –Т.: Маънавият, 1998; С.Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1997; Шайхова Х., Назаров К. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. –Т.: Ўзбекистон, 1992; Юсупов Э. Инсон камоллигининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998; Нишанова С. Маънавият дарслари. –Т.: Ўқитувчи, 1994; Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Тўраева О. Ҳаёт сабоқлари. –Т.: Ўзбекистон, 2005; Тўраева О. Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси. –Т.: Ўқитувчи. 1990; Қурбонов Т. Одбонма. –Т.: Ўқитувчи, 1990; Фитрат. Оила. –Т.: Маънавият. 1998.

ta'sirida individualizm tarafdorlari bo'lganlarning kiyinish tartiblari butun jamiyat, ayniqsa yoshlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jamiyatda kiyinish odobi borasida tomonlar bahslari, keksa yoshlilar va yoshlar o'rtasidagi mavjud farqlar o'zini namoyon etmoqda. Bu esa, kiyinish madaniyati borasidagi shaxs erkinligi va huquqlari masalalarini tartiblashtirish hamda inson huquqlari tamoyillari asosida ishlab chiqishni kun tartibiga qo'yadi.

- Jamiyat tabaqalanishi natijasida turli ijtimoiy guruhlarining o'zaro kichik guruhlanishi yuz bermoqda. Bu holat oila institutiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Islom dini va taqvodorlikka berilgan oilalar o'zlariga o'xshagan oilalar bilan qarindosh bo'lmoqda, ijtimoiy erkin va zamonaviy oilalar ham o'zlariga o'xshagan oilalar bilan birlashmoqdalar. Bu holat oilaviy qadriyatlar ichidagi ba'zi inqirozlarning oldini oladi. Ammo batamom oilaviy inqirozlarni tugatadi degani emas. Ma'naviy, moddiy jihatdan oilaviy guruhlanish jamiyatdagi tabaqalanishning rivojlanishiga yo'l ochadi. Shu nuqtai nazardan, oila qurish uchun eng muhim talablardan biri yoshlarning bir biriga ko'ngil qo'yishi ekanligini esdan chiqarmaslik darkor.

- Oilaviy qadriyatlar tizimida erkak kishi, ya'ni yigitning unib o'sishi, o'qishi va ma'lumotli bo'lishi uchun ko'proq e'tibor berilmoqda. Agar oila ijtimoiy muhtoj oilalardan bo'lsa, yig'ilgan mablag' aynan yigit kishiga ishlatilishi namoyon bo'lmoqda. Bu holat o'zbek oilalarida yigit kishining istiqbolda boquvchi bo'lishi bilan, o'z ota-onasini qariganda moddiy ta'minlashi lozimligi bilan bog'liq. Ammo ayol kishi, agar unda bunday layoqat bor bo'lsa, ma'lumotli bo'lishga haqqi borligi inkor etilmoqda.

- O'tish jarayonidagi ba'zi qiyinchiliklar sharoitida ayollar ko'proq faol bo'lganliklari va ular uchun imkoniyatlar keng tashkil etilganligi bois jamiyatda o'z oilasini ta'minlayotgan, moddiy mustaqil bo'lgan va mulkdorga aylangan xotin-qizlar ko'paymoqda. Bu esa oiladagi an'anaviy iyerarxiyaning, ya'ni "mansab"lar bo'linishining buzilishiga olib kelmoqda. Mazkur holat erlarni, ya'ni erkakni ayol cho'ntagiga bog'lab qo'ymoqda. Shu bois, erkaklar psixologiyasi, shuningdek ayollar psixologiyasi va o'zini tutishida o'ziga xos o'zgarishlar yuz

bermoqda va aks etmoqda. Erkak kishi oila boshqaruvchisi sifatidagi azaliy vazifasini qo'ldan bermoqda. Bu holat osonlikcha yuz berayotgani yo'q: turli inqirozlar, oilaviy tushunmovchilik, ajrim, janjal holatlari ko'paymoqda. Mazkur o'zgarishlarning ham ijobiy, ham salbiy tomonlar mavjud. Shu bois, mavjud o'zgarishlar mohiyatini uning bor murakkabligi bilan tahlil va muhokama etish, oilada bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlarning oldini olishga tomonlarni o'rgatish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

- Oiladagi ma'naviy oriyentirlar ham ma'lum o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Umuman bir formasiyadan boshqa formasiyada yashashga o'tish jarayoni insonlar psixologiyasida bosh ma'naviy qadriyatlar tizimini isloh qilinishiga olib keldi. Mustaqillikning ilk yillarida oddiy aholi tabaqalarida o'qish, ta'lim olish inkor etila boshlandi. Buning natijasida bosh hayotiy aqida sifatida "pul", "mablag'", "boylik" kabilar oldinga chiqdi. Ammo jamiyat hayotining kelgusi rivoji "aql", "intellekt", "texnik rivoj" va takomil masalalari bir-biriga doimiy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, "boylik" ketidan ketish ko'pchilik jamiyat a'zolarining asosiy qadriyatlaridan bo'lib qolmoqda. Mana shunday hayotdan maqsadni faqat "boy" bo'lishda ko'rish, "boy bo'lganga hamma eshiklar" ochiq deb tushunish, "boy bo'lganim uchun hamma narsani qilaveraman" degan aqidalar keng tarqalmoqda. Buning ortida esa chin insoniy fazilatlar unitilmoqda.

- Jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy tabaqalish natijasida o'ziga to'q, boy, ta'minlangan tabaqalar ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan tabaqalarga nisbatan past nazar bilan qaramoqdalar. Ular dabdabali to'y qilish, o'z boyliklarini ko'z-ko'z qilib ko'rsatish, farzandlarini "zo'ravon" qilib o'stirish, o'ziga juda katta mas'uliyatlarni olish, o'z "qo'lining uzunligi", uning hamma joyga yetib borishini ta'kidlash, mensimaslik, gerdayish, kekkayish, o'ziga bino qo'yishni odatiy hol deb bilmoqdalar. Shu bilan birga o'zining kichik bir guruhdagi qadriyatlarini butun jamiyat ongiga singdirishga urinmoqdalar. Eng achinarli hol bu holatlar ko'pincha ichki madaniyat, bilim, ilg'or tafakkur, intellekt va ahloqiy poklikka qarama-qarshi

qo'yilmoqda. O'ziga to'qlik gumanitar qadriyatlar o'rniga o'tishi mumkin, deb baholanmoqda.

- Oila ijtimoiy birlik sifatida er va xotin, ularning farzandlari, qaynona va qaynotalar, qaynagachi va qayinsingillar, qayinbo'yi va qayinakalar, tog'alar, xolalar, ammalar, amakilar, pochchalar va barcha qarindosh urug'lar munosabatidan tashkil bo'ladi. O'zbek oilasi o'z holicha mana shu qarindosh-urug'chilikdan ayri holda, mustaqil holda yashay olmaydi. Urug'-aymog'chilik qadriyatlari juda yuqori qo'yiladi va ularni ardoqlash zarur hisoblanadi. Ammo mazkur qadriyatning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomoni o'zaro muloqot, bir biriga hamdardlilik, hamfikrlilik, birgalik, ko'pchilik bo'lib hayot zarbalariga qarshi turish qadriyatlaridir. Salbiy tomoni, bir tomondan har bir oila mustaqil deb e'lon qilishiga qaramay, bunday murakkab oilaviy munosabatlar tizimida yosh oila ko'pincha aslida mustaqil, va muhimi erkin bo'la olmaydi. Oilaviy mojarolar ham, ularning katta-kichikligiga qaramay, faqat ikki inson o'rtasidagi munosabatlarga emas, balki butun urug'chilik munosabatlariga aylanib ketishi oson kechadi. Demak, yosh oilalar, ulardagi ikki tomon o'z mustaqilligi va erkini birgalikda saqlab qolmoqchi, o'zini o'z yaqinlaridan, ular qiziqishi, ehtirosi, yaxshi niyatdagi entuziazmidan himoya qilmoqchi bo'lsa, mustaqil oila ishlariga aralashish (yoki aralashmaslik) tartiblarini eng avval o'rnatib olishlari shart bo'ladi.

Bu borada, V.G.Belinskiy shunday degan "Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarak-atrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hyech kimning ishi emas".

Shu nuqtai nazardan, oila ma'naviyati masalalari muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Aynan oilada bosh insoniy va gumanistik qadriyatlar kamol topadi. O'g'irlik qilmaslik, birovning haqiga hiyonat qilmaslik, halol yashash, kamol topish, oila a'zolarini hurmat qilish va e'zozlash, an'anaviy ota-onaga hurmat, oilada mehnat qilish, oila iqtisodiyotini ta'minlash shu kabi o'nlab majburiyatlar va insoniy qadriyatlarni shakllantirish aynan oilaning zimmasida.

Zamonaviy o'zbek oilasi ichidagi ziddiyatlar va inqirozlar nuqtai nazaridan oila institutiga nazar solinsa, yuqoridagi holatlar o'zini ochiq namoyon etayotgan holatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, o'zini pinhona namoyon qilayotgan holatlar, oila ichida kechib, tashqariga ko'p ham chiqmayotgan, ammo ko'payib borayotgan salbiy vaziyatlar ham mavjud.

O'zbeklar kelishmovchilik, ziddiyat, janjal bo'lgan uyda rohat bo'lmaydi, deb hisoblashadi. Oilada uning a'zolarini xo'rlamaslik, g'iybat qilmaslik, qilgan ishlaridan ayb topmaslik, yemoq – ichmoqqa qizg'anmaslik kabilar har doim targ'ib qilingan. Oila a'zolari muomalasida salbiy his -tuyg'ularni jilovlay bilish, bir-birini tushunib yetish, ziyrak bo'lish, rashk, gina-kudratning oldini olish yo'llariga yoshlarni o'rgatish darkor.

Eng avvalo yosh yigit va qizlarni oilaviy turmushning barcha o'ziga xosliklariga ochiq va samimiy o'rgatish lozim. Erkak psixologiyasi va ayol psixologiyasi, ular fiziologiyasi, ma'naviy-ruhiy va jismoniy ehtiyojlari kabi masalalarda zamonaviy qarashlarning barchasini yoshlarga bermok zarur. Ayollarimizda erkaklarga nisbatan "g'arazli", "shaxsiy moddiy talablarni qondiruvchi" sifatidagi egoistik munosabat keng tarqalgan. Erkaklar esa o'z ayollariga oilaning xizmatkori, uning yumushlarini bajaruvchi, barchaga bo'ysunishi lozim bir jihoz sifatida qarashadi. Ikkala stereotip ham noto'g'ri hamda o'zgarishi lozim bo'lgan stereotiplardan hisoblanadi. NA ERKAKKA, NA AYOLGA "g'arazli", faqat "manfaat olish"ga yo'naltirilgan munosabat ko'rsatib bo'lmaydi. G'arazli munosabat inson nafsoniyatini yerga uradi. Shu bilan birga hyech kimga ustunlik asosida munosabat ham bildirib bo'lmaydi. Er va xotin munosabati rahmdillik, mehr, oqibat, bir birini asrash tamoyillari asosiga qurilmog'i lozimligi ayon.

Ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy oiladagi munosabatlar uyg'unligi va erkak bilan ayolning majburiyatlari borasida hozir ham dolzarb bo'lgan tamoyilni aytib o'tgan: "Pishirib-kuydirish, tikib-yamash, kir yuvish, bolalarga qarash faqatgina ayollarning ishi, buni qilish erkaklarga uyat degan g'alati, ildiz otib ketgan

yanglish fikrlar mavjud. Vaholanki, buning aksi uyatliroq: holdan toygan, qachon qarasang nimjon, homilador ayol zo'r-bazo'r ovqat tayyorlayotgan, kir yuvayotgan, kasal bolasiga qarayotgan bir paytda, ko'pincha bekor yurgan, vaqtini bo'lar-bo'lmas ishlar bilan yoxud butunlay besamara o'tkazayotgan erkaklarga uyat".

Yigit va qizlarni zamonaviy bilimlar asosida oilaviy munosabatlarga to'g'ri yo'naltirish zarur. Oila – muqaddas dargoh. Shu bois, oilaga muqaddas munosabat zarur. Sokratning bir jumlası mashhur: "O'ylab-netib o'tirmay shartta uylan. Xotining yaxshi chiqasa-ku, xo'p-xo'p, yomon chiqsa – faylasuf bo'lasan!". Faylasuf bo'lish orzu istagi aynan xotin kishi xarakteri va uning erkakka bo'lgan munosabati bilan umuman bog'liq emas. Ammo aynan ayol va erkak munosabatlari, ya'ni har ikki tomon munosabatlari, ayniqsa ularning noto'g'ri tashkil qilinganligi, ko'p xollarda hayotni falsafiy idrok qilishini uchun zamin yaratadi.

Masalan, mana shunday oilaviy munosabatlarni zamonaviy tashkil qilinishiga bag'ishlangan bilimlardan biri – erkak va ayol tafakkur tarzidagi o'ziga xos farqlarni, bir biriga o'xshamas tomonlarni ko'rsatuvchi so'rovnoma hisoblanadi.

2. Ayol va erkaklarning tafakkur tarzidagi farqlar

Qarama-qarshi jinsni siz yaxshi tushunasizmi? Uning nimalar haqida o'ylashi va qanday xulosalar qilishini bilasizmi? Qarama-qarshi jinslar, ya'ni erkak va ayollar tafakkur tarzi, ular ikkalasi ham inson bo'lganligi uchun, birmi, yoki turlichami?!

Biz bu savollarga javob berishga yordam beramiz. Kuyida erkaklar va ayollarga xos bo'lgan xususiyatlar haqida ma'lum tartibda mujassam etilgan savollar va ularga javoblarni ko'rib chiqamiz. Savollar nazariy asoslangan bo'lib, ilmiy tadqiqotlar asosiga qurilgan. Ular asosida 10 ta xulosa berilgan. Savollar ayol va erkak psixologik holatlari bo'yicha keng tarqalgan stereotiplar asosiga qurilgan. Mana shunday stereotiplardan biri – **“Erkaklar hyech qachon e'tibor bilan tinglamaydilar, ayollar esa umuman gapni tushunmaydilar”**, stereotipidir.

Jumlaning har ikki bo'g'inida ham asl holatning buzilishi mavjud. Erkaklar tinglay oladilar, ayollar esa to'g'ri tushuntirilsa, tushuna oladilar. Ana shu xulosalar, sizning fikringizcha, to'g'ri yoki noto'g'riligini o'zingiz ham aytishingiz lozim. O'z munosabatingizni aniqlab olgandan so'ng, o'z javoblaringizni to'g'ri javoblar bilan solishtiring.

Savollar:

1. Ayollarda intuisiya erkaklarga nisbatan rivojlangan bo'ladi. Ularda oltinchi xis bor, buni ko'pincha «ayollar intuisiyasi» deb atashadi. To'g'rimi yoki noto'g'ri?
2. Ayollar ko'p gapiradi. O'tirishlarda ular erkaklarga nisbatan ancha ko'p gapiradilar.
3. Ayollar ko'proq boshqalarga qo'llarini tekizadilar.
4. Ayollar muammoni birinchi bo'lib sezaдилar va muammoga qarshi tura oladilar.
5. Umuman olganda, erkaklar va ayollarning suhbat uchun tanlaydigan mavzulari bir xildir.

6. Turli tadbirlarda odamlar ayollarga nisbatan erkaklarni ko'proq diqqat bilan eshitadilar.
7. Erkaklar ayollarga nisbatan samimiyroq va ochiqdirlar.
8. Erkaklar va ayollar umuman bir xil narsalar ustidan kulishadi, ularda yumorga munosabat o'xshashdir.
9. Erkaklar o'zlariga nisbatan mas'ulroq bo'lib, omadi kelmaganda aybni qo'proq o'zlaridan qidiradilar.
10. Erkaklar voqyea-hodisani avra-astarigacha muhokama qilishni yoqtiradilar.

Javoblar:

1. **Noto'g'ri.** Tadqiqotlar ayollarning alohida xususiyati borligini tasdiqlamaydi va ulardagi intuisiya erkaklardagidan kuchliroq emas. Ammo ayollar narsalarning eng kichik elementlarigacha, mayda-chuydasigacha alohida e'tibor berishadi. Bu kichik detallarga bo'lgan etibor ularda "intuisiya kuchli" degan noto'g'ri tushunchaning shakllanishga sabab bo'lgan. Masalan, intonasiya, mimika, tana harakatlari, kim qanday kiyinganligi, uning modasi va rangi v.h.
2. **Noto'g'ri.** Ayollarga nisbatan erkaklar ko'proq gapiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir rasmni ta'riflab berish so'ralganda, ayollar uni o'rtacha 3 minut ta'riflaganlar, erkaklar esa xuddi shu rasm haqida o'rtacha 13 minut gapirganlar.
3. **Noto'g'ri.** Odatda erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq boshqa odamlarga qo'l tegizadilar. Ular ayollarni kuzatib qo'yganda, mashina yoki stol atrofiga o'tirilganda, biror yordam berishda ko'proq ayollarga qo'l tegizadilar, o'rtacha olganda, erkaklar ayollarga nisbatan 4 marotaba ko'proq ayollarga qo'l tegizadilar. Shuningdek, erkaklar o'zaro ham bir-birlariga ko'p qo'l tegizadilar (salomlashganda, sport o'yinlarida, bir-birlarini qo'llab-quvvatlaganda).
4. **To'g'ri.** Erkaklar ko'proq bayonot qilsalar ham, aslida ayollar birinchi bo'lib turli ijtimoiy va oilaviy muammolar haqida gapira boshlaydilar.

Shunga qaramasdan ayollar muammoni ko'proq yumshatibroq, to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan, pardaliroq qilib ma'lum qiladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar OITS, narkomaniya, uyushgan jinoyatchilik, jinsiy kasalliklar bo'yicha jamoat fikriga birinchilardan ta'sir etishni boshlaganlar va ta'sir eta olganlar. Ayollar jamiyatdagi inqirozlar va muammolarni birinchi bo'lib belgilaydilar va jamoa muhokamasiga qo'yishga intiladilar. Ammo ayollar qo'lida moliyaviy resurslarning mavjud emasligini hisobga olgan holda ular jamiyatdagi mana shunday inqiroziy vaziyatlarga qarshi keng va takomillashgan harakatlarni olib bora olmaydilar.

5. **Noto'g'ri.** Odatda, erkaklar va ayollar har xil narsalar haqida gapiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar ko'proq parhyez, o'zaro munosabatlar, tashqi ko'rinish, kiyim-kechak, salomatlikni asrash, his-tuyg'ular haqida gapirishni yoqtiradilar, erkaklar esa sport, siyosat, texnika, ilmiy yangiliklar, ish, mashinalar haqida ko'proq gapiradilar. Ayollar va erkaklar o'rtasida mavzu tanlashda katta farqlar mavjud.
6. **To'g'ri.** Haqiqatidan ham erkaklarning ma'ruzalarini ko'proq qiziqish bilan tinglashadi. Ham erkak, ham ayol tinglovchilar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot erkak ma'ruzachilarning ma'ruzalari ko'proq e'tibor bilan tinglanishini isbot qilgan.
7. **Noto'g'ri.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkaklar emas, balki ayollar ko'proq samimiy holda, ko'zlarga qarab, iliqlik bilan suhbat qurishar ekan. Agar suhbat yaxshi davom etsa, ayollar ko'zlarga qarashni cho'zishadi, erkaklar esa ko'z urishtirishlardan qochishadi. Shuningdek, ayollar ko'proq kulib qarashadi, suhbat davomida boshlarini qimirlatib, suhbat mavzuini ma'qullab turishadi. Erkaklar o'z samimiyligini ochiq bildirishdan cho'chishadi. Samimiylilik ayollarga xos xususiyat, qo'rslik va sirlarni yashira olish erkaklarga xos xususiyat sifatida baholanadi.
8. **Noto'g'ri.** Erkaklar va ayollarning yumorga munosabati turlichadir. Ayollar erkaklarga nisbatan kam hazillashishadi. Erkaklar hazili qo'polroq bo'ladi. Erkaklar o'zaro juda ko'p hazil ishlatishadi.

9. **Noto'g'ri.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq o'z-o'ziga nisbatan tanqidiy nazar bilan qaray olishadi, o'zlariga nisbatan tanqidiy fikr-mulohalarni qabul qila olishadi va eshitishadi. Ular bunday vaziyatlarda o'z-o'zlarini ayblashga moyilroqdirlar. Ular suhbat davomida o'z nutqlarida «Meni kechirasiz...», «Men boshqa narsani nazarda tutgan edim..», «Afsus..», “Uzi” kabi so'zlarni ko'proq ishlatishadi. Erkaklar qo'qqisdan ularga qarshi qaratilgan tanqidni “sapchish”, tan olmaslik, isbot etilishini talab qilish, o'zganing ayblarini topishga urinish yo'nalishida qabul qilishadi. Erkaklar o'z ichida tanqid to'g'riligini tan olsalar ham, tashqarida o'zlarini aksincha tutadilar. Ularning ko'pchiligi tanqidni, ayniqsa u ayol kishi tomonidan bildirilayotgan bo'lsa, tan olishni o'zlariga ep ko'rmaydilar.
10. **Noto'g'ri.** Ayollar muammoning eng mayda detallarigacha muhokama qilishadi. Shuningdek, ayollar muammoga har turli ta'riflar berishda erkaklarga nisbatan ustunroq bo'lib, jarayonga ijodiy yondashadilar. Ammo ayollar ko'prok, mayda narsalarga e'tibor qaratib, bosh mazmunni ajratib olishga erinadilar. Ayollarni qiziqtirgan mayda-chuydalar erkaklarning ensasini qotiradi. Ular aniqlik tarafdoridirlar. Shu bois, erkaklar turli muammolarni aniq ifoda etgan, muammoning bosh mazmunini belgilab bera olgan insonlar sifatida o'zini ko'rsata oladilar.

Oilaviy hayotni to'g'ri tashkil qilish va uni ziddiyatlardan asrash oilaning barcha a'zolaridan ma'lum tamoyillarga bo'ysunib yashash, ma'lum bilim va ko'nikmalarni fo'llash zaruriyatini talab etadi. Mana shu taablardan ba'zilar borasida to'xtalib o'tamiz.

3. Oilaviy hayotni to'g'ri tashkil qilish, uni ziddiyatlardan asrash bo'yicha qizlarga maslahatlar:

- turmushga chiqish, uylanish, to'y harakatlari har ikki tomon uchun ham stress vaziyati hisoblanadi. To'y tashvishlari hammani birlashtiradi, ammo to'y o'tganidan so'ng stress vaziyat o'tib ketmaydi, balki har ikki tomon, ya'ni kelin va kuyov uchun ham yangi vaziyatdagi yangi hayot sharoiti boshlanganligini anglatadi. Mana shu yangi hayotni siz qanday qurishga intilsangiz va o'z atrofingizga boshqa oila a'zolarini birlashtira olsangiz, sizning hayotingiz mana shu tartiblarda rivojlana boshlaydi. Samimiylik, to'g'rilik, doimiy yaxshi kayfiyat, mehnatga tayyorlik, hurmat, oilani qadrlash, yigitning ota-onasini e'zozlash kabi xislatlar sizga qo'l keladi.
- siz kelin bo'lib tushayotgan oilaning qadriyatlari, tuzilishi, kun tartibi bo'yicha barcha tartiblarni va ma'lumotlarni chuqur o'rganishga to'g'ri keladi.
- yangi oiladagi barcha a'zolar, qaynota, qaynona, qizlar va yigitlar xarakterlariga doir kuzatishlarni yig'ib boring, ularning xarakteri va odatlarini bilib olishga urining.
- qaynonangiz nimalarni sizdan talab qilyapti, u nima narsalarni xush ko'radi, nima narsa va hodisalar uning asabiga tegadi, shuni o'rganing, agar qaynonangiz talablarini bajarish imkoniyati bo'lsa, u ham sizni yaxshi bilib olgunicha, ularni so'zsiz amalga oshirishga sayi-harakat qiling.
- xuddi shunday, qaynotangiz talablari va xohishlarini nazarda tuting.
- xuddi shunday yostiqdoshingizning kayfiyati, mimikasi, ko'z qarashlari, xarakteri va odatlari, nima narsalarni xush ko'rishi, nima narsalarni yomon ko'rishi, umuman uning inson sifatidagi individual tomonlarini juda yaxshi bilib olishga harakat qiling, uning salbiy tomonlarini o'chirib, ijobiy tomonlarini oshirishga sayi-harakat qiling,

chunki xotin – erning tarbiyachisidir. Agar eringiz rashkchi bo'lsa, qanday vaziyatlarda rashk qilishini nazarga oling, agar eringiz ovqatda talabchan bo'lsa, unga yoqadigan ovqatlarni pishirishga urining, agar eringiz ozodalikni yoqtirsa, saramjon-sarishta bo'lishga harakat qiling, eringiz odatlariga moslashishga harakat qiling.

- agar qaynona va qaynotangiz talablari ularning o'g'li sizga qo'yayotgan talablar bilan mos kelmasa, mazkur muammoni qaynona va qaynotangiz hamda eringiz bilan hamjihatlikda tinchlik bilan do'stona va iliq muhokama qilishga harakat qilib ko'ring.
- qaynonangizning sizni tarbiyalashga urinishi bo'yicha sayi-harakatlariga chidam va sabr-qanoat bilan yondashing, qaynonangiz birdaniga sizning qanday inson ekanligingiz va nimalarni istashingizni bilib ololmaydi, siz va qaynonangiz o'zaro bir-birlaringizni tanish va o'rganish jarayonidasizlar.
- sidqidildan qilingan mehnat darrov o'zini namoyon qiladi, o'z mehnatingiz va shirin tilingizni atrofdagilardan ayamang, samimiy bo'ling, doimo kulib turing, ochiq yuz bilan qarang, boshqalarning so'zlari va harakatlaridan yomonlik qidirmang, mehringizni bersangiz mehr olishingiz osonlashadi;
- o'z muammolaringiz, fikrlar, o'y va qarashlaringizni samimiy o'rtoqlashishga harakat qiling, chunki siz bundan buyon falonchixonning "qizi" emas, falonchixonning "kelini"siz. Sizning yutuqlaringiz ham, kamchiliklaringiz ham avvalo yangi oila mavqyeiga ta'sir etishini esdan chiqarmang.
- o'z salomatligingiz borasidagi ma'lumotlarni ham ochiq muhokama etishga odatlaning, agar siz o'zingizni noxush sezayotgan bo'lsangiz, ammo buni yashirsangiz, buning oqibatlari yomon bo'lishi mumkin;
- agar uy yumushlari faqat sizning zimmangizga yuklansa, buning oqibatida na ishd, na uyda, na eringizning talablarida siz ularni bajara olmayotgan bo'lsangiz, bu holatni eringiz bilan ochiq va samimiy

muhokama eting, xotin – sotib olingan erksiz qul va bepul mardikor ham emas. Xotin – uyning hamma majburiyatlarini so'zsiz bajarishga majburiyat ham olgan emas. Tirik – jon, u bilan har qanday vaziyat sodir bo'lishi mumkin. Uy majburiyatlari tenglik asosida to'g'ri taqsimlansa, hamma - mehnat qilishga ham, dam olishga ham ulguradi.

- har qanday oilada er majburiyatlari hamda xotin majburiyatlari mavjud. O'z majburiyatlaringizni boshqalar zimmasiga sababsiz yuklashga odatlanmang. Majburiyatlar masalasida ham sodiqlik, samimiylik va tenglik tamoyillariga bo'ysuning.
- sizning yangi oiladagi hayotingiz bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. *Birinchi bosqich* - yangi kelinlik bosqichi. Bu davrda hamma sizga hurmat va izzat bilan, boshqa tomondan esa, juda katta qiziqish bilan yondoshadi. Doimo kulib tursangiz, yangi oiladagi o'z xushnudligingizni ochiq ko'rsatib tursangiz, kayfiyatingizdagi baxtiyorlik nurlarini boshqalar bilan o'rtoqlashsangiz, oiladagi umumiy muhit ham ko'tarinkilik asosida rivojlanadi. Agar sal narsaga jizzakilik va tajanglik qilsangiz, boshqalar ham sizga shunday munosabat bildirishga haqli bo'ladilar. *Ikkinchi bosqich* – oilaning teng huquqli a'zosiga aylanish bosqichi. Bu davrda siz farzandli bo'lsasiz. Yangi qarindoshlar bilan aloqalaringiz davomiy, samimiy, ishonch asosida rivojlanib boradi. Siz o'zingizning muammolaringizni ochiq aytishga odatlanasiz. Siz oilaning haqiqiy a'zosi bo'lib borasiz. *Uchinchi bosqich* – oilaviy munosabatlarda kelinlikdan chindan ham haqiqiy a'zolikka o'tish, kelinlikdan haqiqiy uy bekaligiga o'tish bosqichidir. Siz bir necha farzandning onasisiz. Ko'p masalalarni qaynona, qaynotangiz bilan emas, faqat eringiz bilan hal eta boshlaysiz. Oila – tamomila mustaqil oilaga aylanib boradi. Sizni ko'proq farzandlar tarbiyasi, ular kamoli va oilaning to'kinligi masalalari qiziqтира boshlaydi. Siz farzandlaringizni o'qitish va bilimli qilish, ularga hunar berish, ularning kelajagini ta'minlash, ularni oilali

qilish kabi vazifalar bilan shug'ullana boshlaysiz. *To'rtinchi bosqich* – siz oilaning yuqori martabali a'zosiga aylana borasiz. Siz bu davrda o'zingiz ham qaynonalik davriga kirib borasiz. Bu davrda qaynona va qaynotangiz ancha o'zini oldirib qo'ygan bo'ladi. Agar siz ularga hurmat bilan sidqidildan xizmat qilishdan o'zingizni olib qochmasangiz, sizning qarichiligingiz ham hurmat va izzatda o'tadi. Ularga, ya'ni qaynona va qaynotangizga bu davrda shirin so'z, yaxshi taom, ozodalik yarashadi. O'z mehringizni ulardan bu davrda ayamang. Eringiz sizning qilgan amallaringizdan umrbod rozi bo'lib qoladi.

- yangi oila munosabatlariga butunlay sho'ng'ib ketib, o'z ota-onangiz manfaatlarini unutib qo'ymang. Turmushga chiqqandan so'ng ular zimmasiga hadeb moddiy talablar qo'yavermang. Inson – narsa bilan baxtli bo'la olmaydi. O'z ota-onangizga ham mehr ko'rsatishga ulguring. Ular ham g'animat. Ularni ham rozi qiling. Farzandlaringizni qarilikni hurmat va izzat qilish, ularga ko'mak berishga odatlantiring, shundagina farzandlaringiz sizning qarichiligingizni ta'minlaydigan bo'ladi.
- eringiz va o'zingizning yaqin qarindoshlaringizga bir xilda munosabat ko'rsating, ularni ayirmang, ularni teng ko'ring va teng munosabat bildiring.
- eringizning yutuqlari va takomili uchun xizmat qilishni o'zingizga saodat deb biling, unga hamdard va hamsuhbat bo'ling, unga tayanch bo'lishga sayi-harakat qiling, farzandlaringizga o'z otasini hurmat qilishni singdiring, otasining ishlaridan g'ururlanishni o'rgating.
- kelin sifatida sizning o'ziga xos majburiyatlaringiz qatorida huquqlaringiz ham mavjud. Ammo ana shu huquqlar poymol etilayotgan bo'lsa, qaynona-qaynota tomonidan siz muntazam psixologik tahqirlansangiz, eringiz tomonidan zo'ravonlik ko'rsangiz, inson sifatida sizning oilada qadringiz bo'lmasa, o'z huquqlaringizni

himoya qilishga sizning haqqingiz bor. Sizni ayol va ona sifatida davlat qonunlarini ham, din arkonlari ham o'z himoyasiga oladi. Buni unutmang!

4. Oilaviy hayotni to'g'ri tashkil qilish, uni ziddiyatlardan asrash bo'yicha yigitlarga maslahatlar:

- siz o'zingiz uchun hamdard va hamsuhbat inson tanladingiz. Sizning hayotingiz uning hayoti bilan umrbod bog'landi. U sizga o'zini ishonib topshirdi. Tanlash mas'uliyati sizda edi. Shuning uchun siz uning taqdiri, kelajagi, salomatligi, tinchligi uchun mas'uliyatni bo'yingizga olasiz. **Siz – unga mas'ulsiz. Ammo unga xo'jayin, unga ega emassiz.** Siz aynan mas'ulsiz. Xotin, sizga turmushga chiqqanidan so'ng, dunyoviy davlat qonunlari bo'yicha ham, diniy aqidalar bo'yicha ham o'z erkini o'zida saqlab qoladi. Chunki xotin butunlay erkini sizga topshirgan qul emas. Oila tinchligi, taqdiri, kelajagi, salomatligi masalalari ko'proq sizning zimmangizda bo'ladi. Islom diniga “Xotin allohning ne'mati. Xotin – er mas'uliyatiga topshirilgan qarz” hisoblanadi. Uni qanday qabul qilingan bo'lsa, shunday sog'lom allohga topshirish lozimligi uqtiriladi.
- xotiningizga bo'lgan oiladagi munosabat sizga juda ko'p parametrlari bo'yicha bog'liq bo'ladi. Agar siz xursand bo'lsangiz – atrofdagilar ham uni hursandlik bilan qabul qilishadi. Eng avvalo, faqat o'zingiz yoqtirgan qizni xotinlikka tanglang. Bu ishda hych qachon birovlarining aqli bilan ish tutmang. Ayol kishining hamma ijobiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda aynan tanlanayotgan qiz sizga yoqdimi, yoki yo'qmi, shunga qarab qaror qiling. Ota-ona sizga kelin tanlashi – tabiiy hol. Bu ularning farzi, ular zimmasidagi vazifa. Siz ularning hoxishini inobatga olasiz, xolos. Ammo kim bilan yashashni siz o'zingiz tanlashingiz lozim. Agar qiz bola sizga yoqmayotgan bo'lsa, uning taqdiri bilan o'ynashmang.
- yangi oilaga kirib borish, uning a'zosiga aylanish oson ishlardan emas. Kelinga juda katta stress holati ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, siz bilan yaqindan tanishadi, ikkinchi tomondan, butun oila a'zolari bilan

muloqot qilishi lozim bo'ladi. Boshqalar bilan til topishish o'z o'zidan vujudga kelmaydi. Ammo kelin zimmasidagi vazifa - hamma bilan til topishishi shart! Uning mana shu holatida siz unga juda katta tayanch bo'lishingiz, hammaning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishingiz, onangiz va kelin orasidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil qilishingiz talab etiladi.

- Ona va yangi kelin orasidagi munosabatlar masalasi juda katta mas'ullik talab etadigan o'ta nozik masalalardan hisoblanadi. Chunki ona – kelinga baho beruvchi, uning har bir qadamini tekshirib, o'z chig'irig'idan o'tkazib, oiladagi unga nisbatan bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiruvchi bosh inson hisoblanadi. Siz – uylanishga qaror qilgan kuningizdan boshlab, mana shu vazifani, ya'ni ona bilan xotin o'rtasidagi mutanosib munosabatlar masalasini ham uddalashim kerak, deyishingiz lozim bo'ladi. Chunki tarozining ikki pallasida bo'lganidek, bir tomonda – ona rozi, ikkinchi tomonda – xotin rozi sharoitini vujudga keltirish, aynan shunday tartibni o'rnatish va qurish sizning zimmangizda. Bir tomondan ona, sizning er sifatida shakllanishingiz uchun imkon yaratishi, sizning erkingizni bo'g'ib qo'ymasligi, sizning nomingizdan qarorlar qabul qilmasligi lozim bo'ladi. Ikkinchi tomondan, ona sizning yoningizda kelinning yangi oilaga kirib borishini ta'minlashi, unga ko'makdosh bo'lishi talab etiladi. Ona – hukmdor emas, ona –mehribon! Uchinchi tomondan, onaning oiladagi mavjud eng nufuzli mavqeyini kelin ta'minlashi, bu o'rinning hurmatli va izzatli bo'lishiga iqror bo'lishi, onani sizning onangiz bo'lgani uchun ham doimo hurmatlashi lozim bo'ladi. Aslida, bu masalalarning hammasi inson huquqlari va erki doirasida yotadi. Agar siz bolalikdanoq boshqa insonlarning ham huquqlari mavjudligi, ularni hurmat qilish lozimligini bilsangiz, to'g'ri qarorlar qabul qilasiz. Siz, oila qurgan inson sifatida o'z xotingizga tayinlaydigan qonuniyatlardan biri – **“hyech bir vaziyatda, hyech bir**

sharoitda onani behurmat qilmaslik”, agar muammo kelib chiqsa, siz bilan bomaslahat uni yechishga intilish, himoyani siz orqali amalga oshirish bo’ladi. Siz, oila qurgan inson sifatida o’z onangizdan qat’iy talab etadigan qonuniyatlardan biri – **“kelinga o’z o’g’lining xotini, aynan uning, ya’ni qaynonaning o’g’liga ishonib o’z taqdirini topshirgan inson sifatida, o’z nevaralarining onasi sifatida”** munosabatda bo’lish talabidir.

- birinchi kunlardan oq yangi oila tartiblari kelinni mas’uliyatli bo’lishga, tartibga chaqiradi. Uning zimmasidagi vazifalar ortadi. Agar u hamma vazifalarni uddalasa, oiladagi xursandlik ortadi. Ammo agar u o’z vazifalarini uddalay olmasa, aynan siz unga sabrli va qanoatli munosabatda bo’lishingiz, u o’z vazifalarini bilib olishiga imkon yaratishingiz lozim bo’ladi. Chunki siz uning mas’uliyatini bo’yningizga olgan insonsiz, shu bilan birga, siz uning posboni va himoyachisiz. U yangi oilada avvalambor faqat sizga suyanadi.
- kelinga qo’yiladigan talab va majburiyatlar aniq bo’lishi lozim. Kelinga beriladigan talablar asosan bir odam tomonidan yetkazilishi lozim. U odam – siz bo’lsangiz ayni muddao. Chunki kelin deb hamma undan biror narsani o’zicha talab qilaversa, ba’zan bir paytning o’zida bir necha joylarga borib, bir necha ishlarni qilishi lozim bo’ladigan holatlar ham kelib chiqishi mumkin. Bu vaziyatda tomonlarning bafurja va bomaslahat ish tutishlari kerak bo’ladi.
- kelin salomatligi – sizning bo’lg’usi farzandaringiz salomatligi deganidir. Shuning uchun uning salomatligiga e’tiborli bo’ling. Homilador ayolni ovqatdan siqish, uni ho’rlash mumkin emas. Bu sizning farzandingizning salomatligiga ta’sir ko’rsatadi.
- kelin sizning ota-onangizni ikkinchi ota-ona sifatida so’zsiz qabul qiladi. Ko’pincha, o’z onasini oddiy “opa” (yoki aya, ona) deb chaqirib, o’z qaynonasini “onajon” deb chaqirayotgan kelinlarni uchratamiz. Kelinning onani o’z qizini chiqargandan so’ng onalik

vazifasidan bo'shamaydi, u umrbod ona bo'lib qoladi. Demak, siz tarafingizdan ham bu masalada mas'ullik joyiz. Kelin har ikki onasiga hurmat ko'rsatishi, o'z onasini to'ydan keyin ham izzatda ushlashi lozim bo'ladi. Bir ona sizni tug'ib, tarbiyalagan bo'lsa, ikkinchi ona uni tug'ib, uni tarbiyalagan. Siz esa kuyov sifatida ularning har birining hurmatlanishi uchun sharoit yaratib berishingiz lozim bo'ladi.

- beayb - parvardigor, deyiladi. Ya'ni, insonning ma'lum bir xatoliklar qilishi tabiiy hol, hisoblanadi. Hyech bir inson xatosiz yashamaydi. Ammo xato tuzatilmaguncha xato hisoblanadi. Xato tuzatilgandan keyin xato bo'lmaydi. Shu bois, sizning zavjingiz xato qilib qo'ysa, unga mehr va adolat bilan tushuntirish, muammoning tub mohiyatini o'zingiz anglab yetmaguningizgacha bosim va ta'iyq o'tkazmaslik yo'lidan boring, sizdan o'z xatoliklari borasida mehrli munosabat ko'rgan inson, hyech zamonga sizga qarshi harakatga jur'at etmaydi. Mehrning kuchi katta, shuni esdan chiqarmang!
- oilaning boshi bo'lish, uning tirikchiligini ta'minlash, oila ravnaqini rejalashtirish oson ishlardan emas. Bu ishlarni asosan erkaklarimiz o'z zimmlariga olishgan. Oila tirikchiligini amalga oshirish – juda katta mehnat va intilish asosida ro'yobga chiqadi. Ayollar erkaklarimizning oilaparvar bo'lib, o'z oilalari ta'minoti yo'lidagi sayi-harakatlariga juda katta hurmat bilan qarashi lozim. Erkaklar esa o'z xotinlarining oilaga doir ichki yumushlar, bolalar tarbiyasi, uy sarishtaligi bilan shug'ullanayotganliklarini hurmat bilan qabul qilishi kerak. Xotin faqat uy yumushlari bilan ovora bo'lib, o'ziga e'tiborni susaytirgan bo'lsa, ularni hayotdan orqada qolgan va qiziqarsiz suhbatdosh sifatida emas, balki, islom dinida ta'kidlangan erning mablag'ini asrab-avaylib, yig'ib-terib beruvchi, uni reja bilan sarf-harajat qiluvchi o'z posboni va tayanchi sifatida qabul qilishi lozim. Erkaklarning ham, ayollarning ham biri birisiz yashashi qiyin. Buni tan olish kerak. Erkaklar va ayollar yagona yaxlit birlik hisoblanadi. Muhabbat alloh

ne'mati, deb bekorga aytilmagan. Demak, yigitlar o'z nomi va masu'liyatiga olgan qizlarni unib o'stirishlari, ularning oila posboniga aylanishlariga ko'mak berishlari, ularga mehrli munosabat ko'rsatishlari lozim bo'ladi.

XULOSA

Oila, o'z ijtimoiy mazmuniga qarab, uch tarkibiy qism birligidan tashkil topadi. Ular: oila asosi sifatida nikoh, nikohning natijasi sifatida er va xotin munosabatlari, hamda er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida farzandlardan tashkil topadi. Er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, yangi avlodning tug'ilishi oilaga muayyan yaxlitlik, muayyan ijtimoiy guruh, jamoa tusini beradi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tizimini vujudga keltiradi. Binobarin, "er-xotin" oilaning dastlabki komponenti (qismi) bo'lib, undan "ona-bola", "ota-bola" va "ota-ona" munosabatlari kelib chiqadi.

Yigit va qizlarni zamonaviy bilimlar asosida oilaviy munosabatlarga to'g'ri yo'naltirish zarur. Oila – muqaddas dargoh. Shu bois, oilaga muqaddas munosabat zarur. Sokratning bir jumlasini mashhur: "O'ylab-netib o'tirmay shartta uylan. Xotining yaxshi chiqasa-ku, xo'p-xo'p, yomon chiqsa – faylasuf bo'lasan!". Faylasuf bo'lish orzu istagi aynan xotin kishi xarakteri va uning erkakka bo'lgan munosabati bilan umuman bog'liq emas. Ammo aynan ayol va erkak munosabatlari, ya'ni har ikki tomon munosabatlari, ayniqsa ularning noto'g'ri tashkil qilinganligi, ko'p xollarda hayotni falsafiy idrok qilishini uchun zamin yaratadi.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi iliq, do'stona munosabatlar ularning jamiyatda o'z o'rnini tepishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona va farzandlar o'rtasida turli sabablarga ko'ra doimo uchrab turadigan nizo (ziddiyat)larni kelib chiqish sabablarini o'rgandik va quyidagi xulosalarga keldik.

1. Ota-onalarning farzandlar ichki dunyosini tushunmasliklari turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ota-onalar farzandlarining ruhiy xususiyatlari haqida yetarli darajada bilimlarga ega emasliklari tufayli ular bilan hisoblashmaydilar.

2. Ko'pchilik oilalarda bolalar tarbiyasida avtoritar uslubni qo'llashlari tufayli ba'zi hollarda ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

3. Ota-ona va oilaning kattalari bilan nizolarning kelib chiqishi bolalarda o'z-o'zini adovat baholashni keltirib chiqaradi.

4. Ota-ona va farzandlar munosabatlarida ziddiyatlarni vujudga kelishi otalarning chekish, ichish, narkotik moddalarni iste'mol qilishlari kabi odatlar bilan bog'liq.

5. Bolalarda sog'lom turmush tarzi haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirishda kattalar, ota-onalarning shaxsiy namuna bo'lishiga erishish sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni kamayishiga olib keladi.

6. Ota-onalar o'z farzandlarini ma'naviy boy, teran fikrlovchi, mustaqil ish yurituvchi qilib tarbiyalashlari hamda tengdoshlari va do'stlari orasida ularda sardorlik xususiyatlarini shakllantirishlari uchun bolaning faolligini rag'batlantirishlari, o'z fikrlarini ifoda etishlari uchun imkoniyatlar berishlari, ular bilan o'zaro tinchlik aloqalarini, do'stona munosabatlarni o'rnatishlari muhim ahamiyatga egadir.

7. O'zbek oilalaridagi otalarga farzandlari bilan muloqat jarayonini kuchaytirishlari, ularning qiziqishi va intilishlariga e'tibor berishlari, onalarga esa farzandlariga o'zaro tinchlik huquqlarini berishlari, ular o'rtasida ishonchli o'zaro hissiy munosabatlariga yordam beradi.

8. Oila a'zolari o'rtasida samimiy munosabatlarni shakllantirish va yuksaltirishda uning moddiy, ma'naviy, pedagogik-psixologik, gigiyenik asoslariga e'tiborngi kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. Sharq. 1999.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
4. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: «Shams ASA», 2005.
5. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2002.
6. Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A. O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari Ilmiy ishlar to'plami. –Toshkent, 1993.
7. Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A. er-xotin orasidagi nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to'plami.. –Toshkent, 1993
8. Oila psixologiyasi. Akad. Lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv-qo'llanma. /Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A., va boshqalar. – Toshkent, “Sharq” 2008.
9. Makarenko A. S. Kniga dlya roditeley. M. 1986.
10. Kaykovus. Qobusnoma. T, «O'qituvchi», 1986.
11. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu - lug'otit turk. T., 1960. (Uch tomlik).
12. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. T., 1983.
13. Munavvarov A. Pedagogika. T., 1996.
14. Rean A., Bordovskaya N., Rozum S. Psixologiya i pedagogika. “PITER” 2005
15. Rean A., Kolominskiy Ya.L. Sosialnaya pedagogicheskaya psixologiya. – SPb., 1999.
16. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. T., «Fan», 1972.
17. Lishin O.V. Pedagogicheskaya psixologiya vospitaniya. – M., 1997.

Elektron **ta'lim** resurslari.

1. www.ziynet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.kitob.uz
4. www.referat.arxiv.uz